

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

**3-2025
IJTIMOIY
FANLAR**

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

X.E.Xodjamberdiyev

Sovet hukumati tomonidan O'zbekistonda madaniyat sohasida amalga oshirilgan milliy siyosat va uning ijtimoiy oqibatlari (1945-1960-yillar) 206

J.Sultonov

Xorazmshoh va Kuchlukning raqobati: Markaziy Osiyoda siyosiy kuchlari o'rtasidagi ziddiyat 212

U.X.Gulmatov

Transport tizimining avtomobil va temir yo'l tarmoqlarini kadrlar bilan ta'minlash muammolari va yechimi..... 219

A.H.Boltayev

Buxoro tarixiy va madaniy yodgorliklarini saqlash jamiyatining faoliyatiga bir nazar 224

Sh.Qo'ldashev, B.Umarxodjayev

Farg'ona dostonchilik maktabi tarixiga doir ba'zi ma'lumotlar 228

M.F.Rasulov

Markaziy Osiyoda qadimgi arxivlar tarixi 231

A.A.Abduqahorov

XX asr boshida Turkistonda jadid matbuoti va uning jamiyatga ta'siri..... 237

 ILMIY AXBOROT
D.N.Toshpo'latov

Addiktiv axloqning milliy madaniyat va an'anaviy qadriyatlarga ta'siri..... 241

F.E.Tuyev

Navoiy, Buxoro va Samarqand mintaqalariga xorijiy sarmoyalarning jalb qilinishi (1991-2008 yillar) 246



UO'K: 330.34(575.1-25)"1991/2008"+339.727.22(575)

NAVOIY, BUXORO VA SAMARQAND MINTAQALARIGA XORIJIY SARMOYALARNING JALB QILINISHI (1991-2008 YILLAR)**ПРИВЛЕЧЕНИЕ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В НАВОЙСКУЮ, БУХАРСКУЮ И САМАРКАНДСКУЮ ОБЛАСТИ (С 1991 ПО 2008 ГОД)****ATTRACTION OF FOREIGN INVESTMENT IN NAVOI, BUKHARA AND SAMARKAND REGIONS (FROM 1991 TO 2008)****Tuyev Fazliddin Erkinovich** 

Buxoro davlat Pedagogika instituti dotsenti, (DSc) mustaqil izlanuvchi.

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalar tizimida iqtisodiyotning soha va tarmoqlariga chet el investitsiyalarini joriy etilishi muhim o'rin tutadi. Xorijiy investitsiyalarni respublikaga jalb qilinishida Navoiy, Buxoro va Samarqand mintaqalarining tabiiy imkoniyatlari respublikaning boshqa viloyatlaridan alohida ajralib turib, qo'shma korxonalar tashkil qilinishiga alohida e'tibor qaratilib, xorijiy sarmoyalar jalb qilinganligiga alohida to'xtalangan.

Аннотация

Важное место в системе экономических связей Узбекистана с зарубежными странами занимает внедрение иностранных инвестиций в отрасли и отрасли экономики. При привлечении иностранных инвестиций в республику природные возможности Навоийского, Бухарского и Самаркандского регионов выделяются среди других регионов республики, особое внимание уделяется созданию совместных предприятий, особое внимание уделяется привлечению иностранных инвестиций.

Abstract

An important place in the system of economic relations between Uzbekistan and foreign countries is occupied by the introduction of foreign investments in industries and sectors of the economy. When attracting foreign investment to the republic, the natural opportunities of the Navoi, Bukhara and Samarkand regions stand out among other regions of the republic, special attention is paid to the creation of joint ventures, special attention is paid to attracting foreign investment.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Samarqand va Buxoro viloyatlar, Zarafshon vohasida, Bank, Investitsiya, AQSh, Italiya, Rossiya Federatsiyasi, qo'shma korxonasi.

Ключевые слова: Узбекистан, Самаркандская и Бухарская области, Зарафшанский оазис, банк, инвестиции, США, Италия, Российская Федерация, совместное предприятие.

Key words: Uzbekistan, Samarkand and Bukhara regions, Zarafshan Oasis, Bank, Investment, USA, Italy, Russian Federation, joint venture.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasida investitsiya xususida qonuniy hujjatlar 1991-yildan boshlab qabul qilingan bo'lib, ular o'tgan vaqt ichida ancha takomillashtirildi. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya to'g'risida"gi Qonunida (1991-yil) "Investitsiya bu iqtisodiy samara (foyda, daromad) olish yoki ijobiy ijtimoiy natijaga erishish uchun sarflanadigan pul mablag'lari, banklarga qo'yilgan omonatlar, paylar, qimmatli qog'ozlar (aksiya, obligatsiyalar), texnologiyalar, mashinalar, litsenziyalar va samara beradigan boshqa har qanday boyliklardir"[1] deb ko'rsatib o'tilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'zbekistonning xalqaro aloqalari tarixiga bag'ishlab yozilgan ishlarga A.Qirg'izboyev, S.Jo'rayev, M.Raximov va boshqalarning kitoblarini kiritish mumkin. Ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan olimlardan P.Sh. Xushbaqov, U.O. Narzullayev, N.Daminov va boshqalarni sanab o'tish mumkin. O'zbekiston xalqaro munosabatlar tarixiga qaratilgan tadqiqotlar o'zaro hamkorlikning umumiy, hududiy va alohida olingan mamlakatlar bilan aloqalar doirasini qamrab olgan. Milliy va mahalliy davlat arxivi materiallari, davriy matbuot hamda ilmiy-ommabop nashrlardan foydalangan holda, tanlangan muammo mohiyatini ochib beradi. 1991-2008 yillar oralig'ida Navoiy, Buxoro va Samarqand mintaqalariga xorijiy sarmoyalarning kiritilishini o'rganish jarayonida iqtisodiy, mantiqiy,

ilmiy abstraksiyalash, induksiya, deduksiya, dinamikada o'rganish, qiyosiy tahlil va boshqa usullardan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

2000-2023 yillar davomida Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlari iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalar jalb qilinish imkoniyatlari kengaydi. Viloyatlar iqtisodiyotga sarmoyalar jalb qilinishi bosqichlarga bo'lib o'rganishni taqozo etadi. Masalan, P.Sh. Xushbaqov 1991-2001 yillarda Samarqand viloyatiga xorijiy sarmoyalarning jalb qilinishi to'g'risida to'xtalgan, lekin sarmoyalarning jalb qilinishini alohida bosqichlarga bo'lmagan. N.A. Daminov esa o'z dissertatsiyasida Samarqandga sarmoyalar kiritilishini besh bosqichga bo'lgan. U.O.Narzullayev o'zining dissertatsiyasida Navoiy viloyatiga xorijiy sarmoyalarning jalb qilinishini to'rt bosqichga bo'lgan[2].

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar tahlil qilinar ekan, Zarafshon vohasi viloyatlarida xorijiy sarmoyalar jalb qilinishini to'rt bosqichga bo'lib o'rganish mumkin, deb hisoblaymiz. Birinchi bosqich: 1991-1999 yillarni, ikkinchi bosqich: 2000-2008 yillarni, uchinchi bosqich: 2009-2016 yillarni, to'rtinchi bosqich: 2017 yildan to hozirga qadar.

1991-1998 yillar barcha sohalarida cheklangan investitsiya resurslari sharoitida kechdi. Investitsiyaning barcha moliyaviy manbalari va mulkchilik shakllari bo'yicha kuzatilgan taqchilligi aynan shu davrga to'g'ri keladi. O'zbekiston respublikasi o'z mustaqilligini e'lon qilingandan keyingi davrning dastlabki yillarida 1991-1994 yillarda respublikada pul islohot amalga oshirilishi qolaversa, uzoq xorijiy davlatlar nazlida O'zbekistonning keyingi taqdiri qanday kechishi mavhum bo'lib turganligi sabab bo'lgandi. Shunga qaramay, O'zbekiston o'z tanlagan yo'lidan og'ishmay borib, dastlab O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1991-yil 14-iyunda tasdiqlangandi "Tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida"[3] Qonuni (bu qonunga 2000-yil 26-mayda o'zgartishlar va qo'shimchalar kiritilgan-dissertant). 1991-1998 yillarda investitsiya faoliyatining o'ta murakkab davri hisoblanib, investitsiya to'g'risidagi qonunlar jahon talablari doirasiga to'la mos kelmagan. Shunga qaramasdan, 1994-1996 yillarda viloyatlarga xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxona eksport hajmining hududiy sharoitdagi tahlili mintaqalarda sezilarli farqlanishni ko'rsatgandi. Agar 1994-yilda qo'shma korxonalar eksporti hajmi asosan Toshkent shahri va Toshkent viloyatiga to'g'ri kelgan bo'lsa (shunga mos ravishda 75,2 foiz va 15,5 foiz), 1996-yilga kelib eksport qiluvchilar geografiyasi sezilarli darajada o'zgardi, investitsiyalarning asosiy salmog'i Navoiy viloyatiga to'g'ri keldi (57,5 foiz). Andijon, Buxoro va Samarqand viloyatlarining eksport ulushi biroz oshdi, Toshkent shahrida esa bu daraja 31,4 foizni tashkil etdi[4].

1998-yil 30-aprelda mamlakat parlamenti qabul qilgan N-612-I "Chet ellik investorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"[5] gi, 1998-yil 25-dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Investitsiya faoliyati to'g'risida"[6] va "Chet el investitsiyalari to'g'risida"[7] gi hamda 2000-yil 26-mayda yangi tahriri tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasining tashqi iqtisodiy faoliyati to'g'risida"[9] gi Qonunlar qabul qilindi. Qolaversa, 2005-yil 11-aprelda "To'g'ridan-to'g'ri xususiy xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"[9] gi Prezident farmoni bilan Soliq kodeksida belgilangan tartibda alohida soliqlar bo'yicha imtiyozlarni qo'llashning o'ziga xos xususiyatlari nazarda tutiladi: undagi soliqlar miqdori 300 ming AQSh dollaridan 3 mln. AQSh dollarigacha – 3 yil muddatga; 3 mln. AQSh dollaridan ortiq va 10 mln. AQSh dollarigacha – 5 yil muddatga; 10 mln. AQSh dollaridan ortiq bo'lganda – 7 yil muddatga, imtiyozli qilib belgilandi[10]. Qolaversa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005-yil 2-avgustdagi 180-sonli qaroriga asosan "Investitsiya shartnomalarini tuzish va amalga oshirish tartibi" to'g'risida nizom ishlab chiqilgan. Mazkur Nizomga Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 7-iyuldagi 133-sonli qaroriga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

2000-2008 yillar Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlari iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalar jalb qilinishini bu viloyatlarda turlicha kechgan negaki bu mintaqalar tabiiy hududiy hamda aholining ijtimoiy holatidan kelib chiqib bu mintaqalarga sarmoyalar jalb qilingan. Darhaqiqat, hududiy (geografik) mehnat taqsimoti jarayonida ijtimoiy-iqtisodiy sohalar, joylarning tabiiy sharoiti, o'rni, qazilma boyliklari, aholisi va mehnat resurslari kabi omillardan kelib chiqqan holda, hudud bo'ylab tarqaladi, "taqsimlanadi". Ular shu joyning ixtisoslashgan tarmoqlari sifatida o'zidan kattaroq (kengroq) geoiqtisodiy tizimda o'rnini belgilab beradi. Ayni vaqtda bir joyning (shahar, tuman, viloyat va h.k.) o'zida hududiy mehnat taqsimoti natijasida qator, bir-biri bilan bog'liq yoki bog'liq bo'lmagan tarmoqlar mujassamlanadi va o'ziga xos hududiy majmualar vujudga keladi. Demak, hududiy

mehnat taqsimotida tarmoq va sohalar differensiyalashadi, turlanadi va tarqaladi, hududiy majmualarda esa ular o'zaro integratsiya jarayoniga kirib, geoiqtisodiy makonni shakllantirishadi[11].

Yuqorida qayd qilingan qonun hujjatlari respublika iqtisodiyotiga xorijiy sarmoyalarni kiritilishiga qonuniy yo'l ochib bergan. 1999-2005 yillar respublika bo'yicha kiritilgan xorijiy investitsiyalar 1999-yilda 121 mlrd. AQSh dollarini tashkil qilib, 1999-yil oxiriga kelib bu ko'rsatkich umumiy zahiralar, oltindan tashqari 763 mlrd. AQSh dollarini tashkil etgan. Bu ko'rsatkichlar 2000-yil 75 milliard, 2001-yil 83 mlrd. 2002-yil 65 mlrd. 2003-yil 70 mlrd. 2004-yil 180 mlrd., 2005-yilga kelib 250 mlrd. AQSh dollari tashkil etdi[12].

2003-yilda kiritilgan sarmoyalarning 18690,8 million so'm Samarqandga[13], 40,3 milliard so'm Navoiyga[14], mulkchilik shaklida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar 88215,7 million so'mi Buxoro viloyatiga to'g'ri keladi[15]. Yuqorida qayd qilingan investitsiyalarning ko'prog'i Navoiy viloyatiga to'g'ri keladi. Shuningdek, viloyatlarga kiritilgan investitsiyalar mintaqalarni iqtisodiy holatini yaxshilashga yo'naltirilgan.

2000-yilni Samarqand iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar hisobidan bir qancha loyihalar amalga oshirilgan. 2000-yilda 5 milliard 100 million so'mlik xorijiy investitsiya kiritilgan. Mintaqaga kiritilgan xorijiy investitsiyalar hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 3,8 foizga o'sgan[16]. Chet el sarmoyasining ahamiyati haqida alohida to'xtalish, bu bejiz emas, Negaki O'zbekistonda Italiya bilan hamkorlik qilishning uflari keng. Chunonchi, Samarqanddagi "SamKochavto" qo'shma korxonasini 27 foiz aksiyasi Italiyadagi "Iveka" firmasiga tegishli. 2000-yil davomida italiyalik ishbiarmonlar bilan hamkorlikda 31 ta loyiha (umumiy qiymati 120 million AQSh dollariga teng –diss.) amalga oshirilgandi[17]. 2001-yilda Samarqand viloyatida makroiqtisodiy va moliyaviy barqarorlik hamda iqtisodiyotning mutanosibliigi ta'minlanayotgani, 2001-yilning birinchi yarmida o'tgan yilning shu davriga nisbatan ishlab chiqarilgan yalpi ichki mahsulot hajmi 4,7 foizga o'sganini ham ijobiy baholash mumkin[18].

Shu davrda, Navoiy shahri sanoati haqida fikr bildirilganda nafaqat viloyat yoki respublikada, balki Markaziy Osiyodagi eng yirik korxona[19] Navoiy kon metallurgiya kombinatini alohida tilga olish lozim. Manfaatli hamkorlik o'z samarasini bermoqda. Natijada, Navoiy mashinasozlik zavodi Ukraina bilan o't o'chirish texnikalari ishlab chiqarish, Navoiy kon-metallurgiya kombinati esa Rossiya Federatsiyasi bilan birgalikda "Ortomedfarmserviz" qo'shma korxonalarini tashkil etdi[20]. Mazkur qo'shma korxonalar Respublika xalq xo'jaligining bu mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirib, o'z mahsulotlarini chet ellarga ham jo'natmoqda. Ularning buyurtma portfellari Markaziy Osiyo davlatlaridan tushgan talabnomalar bilan to'la. Demak, viloyat iqtisodiyotini mustahkamlash uchun qo'shimcha imkoniyatlar vujudga keldi.

2001-yil davomida viloyat sanoat korxonalari tomonidan amaldagi narxlarda ("Zarafshon Nyumont" QK hajmi qo'shilgan holda –diss.) 140,9 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, ishlab chiqarish hajmi 2000-yilga nisbatan 100,2 foizni tashkil etdi. Shuningdek, 2001-yil mobaynida viloyat tashqi savdo aylanishi 451,4 mln. AQSh dollarini tashkil etib, bu ko'rsatkich 2000-yilga nisbatan 110,1 foizni tashkil etdi. Viloyat bo'yicha eksport hajmi 220,6 mln. AQSh dollarini tashkil qilib, 2000-yilga nisbatan 12,2 foizga, shuningdek, import hajmi 230,7 mln. AQSh dollarini tashkil qilishi va bu ko'rsatkich ham 2000-yil yakuniga nisbatan 8,1 foizga o'sishi ta'minlangandi[21].

Viloyatda o'tgan 2001-yilda chet el sarmoyalari ishtirokida yana qo'shimcha 3 ta yangi qo'shma korxonalar tashkil qilinib, ularning umumiy faoliyat ko'rsatayotgan soni 28 taga yetgan edi[22]. Investitsiyalarning jadallashishi natijasida 2003-yil 39-ta qo'shma korxonaga yetgan[23]. Faoliyat ko'rsatayotgan qo'shma korxonalar tomonidan 2001-yilda 51,7 mlrd. so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, bu viloyat bo'yicha ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 36,7 foizini tashkil qilgan[24].

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining ish rejasiga muvofik "Lizing to'g'risida"gi Qonunning Navoiy viloyatidagi ijrosi deputatlar ishchi guruhi tomonidan o'rganib chiqilgan edi. "Lizing to'g'risida"gi Qonunning ijrosi viloyatdagi bir qator tashkilotlarning bevosita va bilvosita o'zaro hamkorligi asosida amalga oshirilmoqda. Shu bois, viloyatda 1998-2000 yilda "O'zbek Lizing Interneshnl A.O." korxonasi tomonidan 1 ta Lizing loyihasi, "O'zqishloqxo'jalikmashlizing" ALKning Navoiy viloyati filiali tomonidan 2001-2002-yillar davrida 262 ta lizing loyihasi amalga oshirilgan[25]. Jumladan, "O'zbek Lizing Interneshnl A.O." qo'shma korxonasi tomonidan 1998-yilda 165 ming AQSh dollari qiymatidagi muzqaymoq ishlab chiqarish uskunasini Italiyadan import qilinib, moliyaviy lizing asosida 2 yil muddatga "Shams Navoiy" xususiy firmasiga berilgan[26]. Ushbu loyiha o'zaro

ILMIY AXBOROT

olingan majburiyatlar to'liq bajarilganligi va shartnoma muddati tugaganligi munosabati bilan yopilgan.

Buxoro viloyatiga esa asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning iqtisodiy tarmoqlari bo'yicha jami: 2000-yil hisobida 3.1 mlrd. so'm kiritilgan bo'lib, shundan, 5,6 mlrd. so'm sanoatga, qishloq xo'jaligiga 4,2, transportga 1,7 mlrd. so'm ajratilgan qolgan summa esa turli tarmoqlarni taraqqiyoti uchun sarflangan[27].

Xorijiy sarmoyalar yildan-yilga viloyatlarga jalb qilinishi jadallashishi natijasida 2000-2003 yillarda Buxoro viloyatiga ham o'zining natijasini bergan. Chet el investitsiyalar jalb qilinish faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari 2000-yil oxirida ishlab turgan qo'shma korxonalar soni 31 tani tashkil qilib bu korxonalarga xorijiy investitsiyalar jalb qilinishi natijasida qo'shma korxonalar soni 2001-yilda 40 ta, 2002-yil 45 ta, 2003-yil esa 53 taga yetgandi[28].

XULOSA

O'zbekistonda olib borilayotgan investitsiya siyosati mablag'ni qarzga olish emas, balki investorlarni jalb etishni ko'zda tutadi. Shuning uchun xorijiy kreditlarning umumiy hajmidan hukumat kafolati asosida minglab loyiha bo'yicha ishlar amalga oshirilgan. O'zbekiston qazilma boyliklar bo'yicha katta salohiyatga ega. Mamlakat iqtisodiyotiga tashqi investitsiyalar kiritilishida Navoiy, Samarqand va Buxoro viloyatlarining o'rni va mavqei beqiyos dir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикасининг 1992-йил 2-июлдаги 628-XII-сон Қонуни таҳририда Олий Кенгаш Ахборотномаси, 1992-й., 9-сон, 336-модда.
2. Хушбақов П.Ш. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг иқтисодий ривожланиши: муаммо ва зиддиятлар (Самарқанд вилояти мисолида). Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2007.–20-б.; Даминов Н.А. “Мустақиллик йилларида Самарқанд вилоятида ижтимоий-иқтисодий, маданий алоқаларнинг ривожланиш тарихи ва истиқболлари (1991-2016 йй.)” Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. –Бухоро, 2021. 55-б.; Нарзуллаев У.О. Ўзбекистон Республикаси Навоий вилоятининг замонавий тарихи ва барқарор ривожланиш омиллари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси автореферати. –Тошкент, 2019. 57-б.
3. Ўзбекистон Республикасининг янги қонунлари. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг 1993-йил, 6-сон, ўн иккинчи чақириқ ўнинчи сессиясида қабул қилинган қонун ва қарорлар. – Тошкент: “Адолат”, -248 б.
4. Ўзбекистон Миллий Архив, М-20-фонд, 1-руйхат, 10-йиғма жилд, 65-варақ; Солиев А. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари: Тошкент., 2006. –Б.79.
5. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг 30.04.1998 й. 612-I-сон “Чет эллик инвесторлар ҳуқуқларининг кафолатлари ва уларни ҳимоя қилиш чоралари тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Қонунини амалга киритиш ҳақидаги Қарори.; Хорижий инвестициялар тўғрисидаги Ўзбекистон Республикасининг қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – Тошкент, 1998. 6- сон.; Раҳмонқулов Ҳ.Р., Бобоев Ҳ.Б., Рустамбоев М.Х., Оқюлов О., А.Р.Раҳманов (ва бошқ.)ларнинг умумий таҳрири остида. Халқаро хусусий ҳуқуқ. – Тошкент: “Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси” 2002 йил, -Б.49.
6. Раҳмонқулов Ҳ.Р., Бобоев Ҳ.Б., Рустамбоев М.Х., Оқюлов О., А.Р.Раҳманов (ва бошқ.)ларнинг умумий таҳрири остида. Халқаро хусусий ҳуқуқ. – Тошкент: “Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси” 2002 йил, -448 б.
7. Бекмуродов А.Ш., Карриева Я.К., Нематов И.У., Набиев Д.Ҳ., Каттаев Н.Т. Хорижий инвестициялар. – Тошкент.: Иқтисодиёт, 2010. –Б.52. – 166 б.
8. Раҳмонқулов Ҳ.Р., Бобоев Ҳ.Б., Рустамбоев М.Х., Оқюлов О., Раҳманов А.Р. (ва бошқ.)ларнинг умумий таҳрири остида. Халқаро хусусий ҳуқуқ. – Тошкент: “Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси” 2002-йил, -Б.48.
9. Бекмуродов А.Ш., Карриева Я.К., Нематов И.У., Набиев Д.Ҳ., Каттаев Н.Т. Хорижий инвестициялар. – Тошкент.: Иқтисодиёт, 2010. –166 б.
10. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 2005-йил 11-апрел, ПФ-3594-сон
11. Солиев А. Худудий мажмуаларнинг назарий асослари, Тошкент, 2006. –134 б.
12. Европа тикланиш ва тараққиёт банкнинг расмий ҳужжати. Ўзбекистон бўйича дастур. Директорлар Кенгаши тарафидан 26 июл, 2005 й. Тасдиқланган. –64 б.
13. Самарқанд вилояти статистика бошқармаси. Статистик тўплам 1997-2006-йиллар. Самарқанд. 2007. – 246 б.
14. Навоий вилояти статистика бошқармаси. Навоий вилоятининг 2003-2009 йилларда ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг асосий кўрсаткичлари. Навоий. 2010. –45 б.
15. Бухоро вилояти статистика бошқармаси. Бухоро вилоятининг статистик ахборотномаси 2002-2003-йиллар. Бухоро. 2004. –134 б.
16. Самарқанд вилоят ҳокимлиги жорий архиви. 1552-фонд, 1-руйхат, 1451-йиғма жилд, 133- варақ.
17. Жабборов Ш. “Чет эл сармоялари афзаллиги ҳақида”. // Халқ сўзи. 2000-йил, 28-ноябр, –Б.1.
18. Самарқанд вилояти кенгашининг сессияси. // Халқ сўзи. 2001-йил 12-сентабр. –Б.1-3.;
19. Жуманиёзов Р. Барханлар бағридаги бустон. // Халқ сўзи. 2006-йил 28-июн, –Б.2.
20. Jumayev P. Eksport salohiyati oshsin deb. // Xalq so'zi. 2000-yil 10-mart. №48. –v.2.
21. Navoiy viloyat davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 560-yig'ma jild, 26-varaq.
22. Navoiy viloyat davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 560-yig'ma jild, 26-27-varaq.

23. Navoiy viloyati davlat statistika qo'mitasining joriy arxivi, 2003-2009-yillarda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari hisoboti, varaq-3.
24. Navoiy viloyat davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 560-yig'ma jild, 27-varaq.
25. Navoiy viloyat davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 556-yig'ma jild, 218-varaq.
26. Navoiy viloyat davlat arxivi, 100-fond, 1-ro'yxat, 556-yig'ma jild, 218-varaq.
27. Ўзбекистон Республикаси давлат статистик қўмитаси. Бухоро вилояти йиллик статистик тўплами. (1995-2010) –Бухоро-2011. –Б.152.
28. Ўзбекистон Республикаси давлат статистик қўмитаси. Бухоро вилояти йиллик статистик тўплами. (1995-2010) –Бухоро-2011. –Б.194.